TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG‘I

“ 7 ” fevral 2025-yil 09T -son **Toshkent sh.**

Toshkent amaliy fanlar universiteti talabalarining malakaviy amaliyotini o‘tash tartibini tashkillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabradagi PQ-60-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2022-yil 15-martdagi 04-593-son topshirig‘i ijrosini ta’minlash, shuningdek, ish beruvchilarning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini e’tiborga olgan holda kadrlarni o‘qitish usul va shakllarini, fan, o‘quv jarayoni va amaliyot integratsiyasini yanada takomillashtirish hamda universitet talabalarini amaliyotini tashkil etish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Toshkent amaliy fanlar universiteti bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan II, III va IV bosqich talabalari uchun malakaviy amaliyot (tanishuv, kuzatuv, o‘quv-ishlab chiqarish (pedagogik) va bitiruv malakaviy) nopedagogik yo‘nalishlarga “5+1” tartibida va pedagogik yo‘nalishlarga “4+2” tartibida amaliyot o‘tashi belgilansin.

- II va III bosqich talabalar uchun 2025-yil 10-fevraldan amaliyot kunlari boshlanishi belgilansin (15 hafta);
- Bitiruvchi guruhlar (III bosqich “Maktabgacha ta’lim” va IV bosqich barcha ta’lim yo‘nalishi) talabalari uchun 2025-yil 17-fevraldan amaliyot kunlari boshlanishi belgilansin (10 hafta).

2. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor (M.Vapayev), Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi boshlig‘i (M.Raximova) va fakultet dekanlariga:

- Amaliyot o‘tash tartibi tasdiqlangan Nizomga hamda muddatlari 2024-2025 o‘quv yili uchun o‘quv jarayoni grafigiga muvofiq amalga oshirilishi ta‘minlansin;
- 2024-2025 o‘quv yili II yarimidagi talabalar ro‘yxati (guruhlar kesimida) to‘liq shakllantirilib, Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limiga 2 kun muddatda topshirilsin;
- Ro‘yxat asosida talabalar tegishli tartibda tashkilotlarga biriktirilsin va belgilangan joylarga yetkazilsin;

- Talabalarning o‘quv-ishlab chiqarish muassasalari va tashkilotlarida amaliyot o‘tashida sharoitlar yaratib berilishi bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin;
- II va III bosqich talabalar ro‘yxati pedagogik yo‘nalish 1-ilovaga, nopedagogik yo‘nalish 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;
- Bitiruvchi guruhlar (III bosqich “Maktabgacha ta’lim” va IV bosqich pedagogik yo‘nalishlar) talabalar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;
- Bitiruvchi guruhlar (IV bosqich nopedagogik yo‘nalishlar) talabalar ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Barcha kafedra mudirlariga:

- Tegishli ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha amaliyot dasturlari ishlab chiqilsin;
- Kafedra o‘qituvchilaridan iborat amaliyot rahbarlari ro‘yxati shakllantirilsin va tasdiqlansin;
- Amaliyot dasturlari va amaliyot rahbarlari ro‘yxati Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limiga 2 kun muddatda topshirilsin.

4. Ushbu buyruq ijrosini ta’minlash Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi boshlig‘i M.Raximovaga va nazorati O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor M.Vapayev zimmasiga yuklatilsin.

Rektor **A. V. Umarov**